



ZAMONAVIY MARKETINGDA BLOCKCHAIN TEXNOLOGIYALARI

Nazarov Ulug'bek Akbarovich

Toshkent davlat transport universitet assistanti

Jurakulova Ruxshona O'ral qizi

Toshkent davlat transport universitet talabasi

Annotatsiya: Hozirgi kunda Marketing sohasida blokcheyn (blockchain) texnologiyasi har bir biznesning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun asosiy element hisoblanadi. Ushbu maqolada marketingning asosiy tamoyillari, strategiyalari, blockchain texnologiyasi va zamonaviy marketing tendensiyalari haqida aks etgan

Kalit so'zlar: Blockchain texnologiyasi, strategiya, marketing tamoyillari, marketing tendensiyalari:

Abstrack: In today's landscape, blockchain technology in marketing is becoming a fundamental element for the success of any business. This article explores the core principles and strategies of marketing the integration of blockchain technology, and contemporary marketing trends.

Key words: Blockchain technology, strategy, marketing principles, marketing trends

Mavzuni kengroq yoritib olish uchun marketingga alohida e'tibor qaratish darkor. Marketing (inglizcha market -bozor) -bu mahsulot yoki xizmatlarni yaratish, mijozlarga yetkazib berish va ularni sotish jarayonlarini boshqarish tizimidir. Oddiyroq aytganda marketing- to'g'ri mahsulotni, to'g'ri odamga, to'g'ri vaqtda va to'g'ri narxda taqdim etish san'atidir. Marketingning asosiy maqsadi faqat mahsulot sotish emas, balki mijozning ehtiyojini tushunish va uni qondirish orqali kompaniyaga foyda keltirishdir. Shunday ekan marketingning asosiy qanoti blockchain texnologiyasi hisoblanadi. Marketing sohasida blockchain texnologiyasi shunchaki kriptovalyutalar uchun emas, balki brendlar va iste'molchilar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash, shaffoflikni ta'minlash va firibgarlikni kamaytirish uchun xizmat qiladi.

Bugunki kunda marketing sohasi jadallik bilan dunyoni egallab bormoqda. Ya'ni inson ehtiyojini qondirish maqsadida kompaniyalar bir mahsulotning turli brendini ishlab chiqarmoqda. Bu iqtisodiyotimizni yanada rivojlanishiga katta yordam bermoqda. Kompaniyalar ko'pincha to'g'ri yo'l va arziqli yechim yoki qing'ir-qiyshiq so'qmoq va iste'molchilar ishonchini yo'qotishday tanlov oldida turadilar. Eng katta hurmatga sazovor bo'lgan kompaniyalar faqat o'zlarining manfaatlariga emas, balki butun jamiyat manfaatlariga xizmat qilish qoidalariga qat'iy amal qiladilar. Bunday kompaniyalarining reytinglari "Reputation Institute va Harris Interactiva" mustaqil agentliklari tomonidan doimo o'tkazilib turiladi. Masalan 2001-yilda 15 o'rinni (ko'rsatilgan tartibda) "Johnson & Johnson", "Microsoft", "Coca-cola", "Intel", "3M", "Sony", "Hewlett-Packard", "FedEx", "Maytag",



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'UYALAR



“IBM”, “Disney”, “General Electric”, “Dell”, “Procter & Gamble” va “United Parcel Service” egalladilar.

Ularning hammasi o‘zining mahsuloti, yuqori darajali xizmat ko‘rsatishi va korporativ saxovat-peshaligi bilan mashhurdir. Benuqson obro‘-e‘tibor va yuz foiz ishonchlilik ularning daromadlarida ham o‘z aksini topgan. Iste‘molchilar bularning mahsulotini hech ikkilanmasdan xarid qilishadi. Sababi bular iste‘molchi ishonchiga kirib bo‘lishgan. Marketing sohasida ham bir qancha muaommolar bor. Yani kompaniyalar juda ko‘p holatlarga duch keladilar.

Reklama sohasidagi firibgarlikka (Ad Fraud) qarshi kurash

Raqamli marketingda eng katta muammolardan biri-bu “bot-trafik”. Ko‘p hollarda kompaniyalar o‘z reklamalarini haqiqiy odamlar emas, balki botlar ko‘rayotgani uchun pul to‘lashadi.

Bunga yechim: blockchain har bir klik va ko‘rishni real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi. Har bir tranzaksiya zanjirga yozilgani sababli, ma‘lumotlarni soxtalashtirish imkonsiz bo‘ladi.

Shaffoflik va ta‘minot zanjiri marketingi

Zamonaviy iste‘molchilar mahsulotning qayerdan kelganini bilishni xohlashadi (masalan kiyim qayerda tikilgan, yoki oziq ovqat qaterda yetishtirilgan).

Bunga yechim: Brendlar mahsulot yo‘lini blockchainga joylashtirib, mijozga QR-kod orqali barcha jarayonni ko‘rsatishi mumkin. Bu brendga bo‘lgan ishonchni keskin oshiradi.

Ma‘lumotlar xavfsizligi va shaxsiy daxlsizlik

Mijozlar o‘z shaxsiy ma‘lumotlarini uchunchi tomonlarga (google yoki meta) berilishidan xavotirda.

Yechim: Blockchain asosidagi tizimlarda foydalanuvchilar o‘z ma‘lumotlariga o‘zlari egalik qiladi. Agar brend mijoz ma‘lumotidan foydalanmoqchi bo‘lsa, u holda bevosita mijozga tokenlar yoki bonuslar shaklida haq to‘lashi mumkin.

Bular har qanday holatda ham marketingni sindira oladi. Yechimdan foydalanish iqtisodiyotni yanada rivojlantiradi hamda insonlarning cheksiz ehtiyozlari samarali qondira oladi. Kompaniyalar o‘z ustida ko‘p ishlab yanada brendni rivojlantirib aholi orasiga sezilarli kirib borsa, ya‘ni o‘zining sifati bilan, aholi eski tanlovni qo‘llab quvvatlaydi.

Blockchainning marketingdagi asosiy foydalari

Vositachilarning yo‘qolishi

Tavsif: Reklama beruvchi va mijoz o‘rtasidagi ortiqcha agentliklar kamayadi.

Xarajatlarni tejash

Firibgarlik kamayishi hisobiga marketing budjeti samarali sarflanadi

Aniqlik

Mijozlar haqidagi ma‘lumotlar aniq va o‘zgartirib bo‘lmas holatda saqlanadi.

Dunyo bilan hamnafas bo‘ladigan bo‘lsak blockchain marketingni yuragi hisoblanib, kompaniya rivoji uchun muhim omildir.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'UYALAR



Shu bilan birga marketing strategiyasiga to'xtaladigan bo'lsak, bu ham blockchain bilan uzviy bog'liqdir. Marketing strategiyasini ishlab chiqish bo'yicha asosiy qadamlar.

1. Bozor tadqiqoti

Marketing strategiyasini ishlab chiqishda bozor tadqiqoti asosiy ahamiyatga ega. Negaki har bir marketingchi nafaqat bozorni balki mijozlarning ehtiyojini, raqobatchilarni va bozor tendensiyalarini o'ragnishi kerak. Bu mahsulotni yaxshi sotilishiga asosiy sabab bo'ladi.

2. Marketing aralashmasini (4P) ishlab chiqish

Marketing aralashmasi (Product, Price, Place, Promotion) asosida mahsulot yoki xizmatning bozorga kirishni rejalashtirish va boshqalardir.

Marketing asboblari majmuasi bu savdoga ta'sir qiluvchi vositalar yig'indisidir. 4P sotuvning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida bir birini o'rnini bosa boladi. Zamon rivojlangani sari marketing ham rivojlanmoqda. Bu iqtisodiyotning o'sishini belgilab beradi.

Xulosa qilib aytganda marketing har bir biznesning muvaffaqiyatli bo'lishda muhim rol o'ynaydi. U mijozlar ehtiyojini aniqlash, mahsulot yoki xizmatni bozorda joylashtirish va sotuvni oshirish uchun zarur strategiyalarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari zamonaviy marketing shiddat bilan o'zgarmoqda. Ma'lumotlar maxfiyligi va mijozlarning brendlarga bo'lgan ishonchi pasayib borayotgan bir davrda blockchain texnologiyasi marketing strategiyalarni tubdan isloh qilish imkonini bermoqda. Blockchain marketingda nafaqat texnik vosita, balki "ishonchli iqtisodiyot" ning asosi hisoblanadi. U vositachilarni kamaytiradi xarajatlarni optimallashtiradi va mijoz bilan brend o'rtasida halol muloqotni o'rnatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Flipp Kotler "marketing A dan Z gacha". Toshkent: "iqro nashr". 2021
2. Kotler, P., Kartajaya, H., & Seatiawan, I. (2021). Marketing 5.0: technology for Humanity. Wiley.
3. Tapscott, D., & Tapscott, A. "Blockchain revolution"
4. Harvard Business Review (HBR). How Blockchain Will Change Marketing